



Илмий – амалий конференция  
материаллари

**ИЛМ - ФАН  
ВА  
ИННОВАЦИЯ**

Қарши

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ  
ВАЗИРЛИГИ**

**ҚАРШИ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ**

**ИЛМ-ФАН ВА ИННОВАЦИЯ**

**Илмий-амалий конференция  
материаллари**

**Карши  
“Карши давлат университети” нашриёти  
2019**

kechalar, kunlar tarbiyalaydi, degan hikmatli so‘zni keltiradi. Har bir ota-onaliga o‘z farzandiga bilim, ta’lim-tarbiya va hunarni meros etib qoldirishi kerak, chunki tarbiyadan ko‘ra yaxshiroq meros yo‘qdir. "Nima eksang shuni o‘rasan"- degan o‘zbek va tojik xalqlarida keng tarqalgan maqolni ishlatib, u oilada bola tarbiyasining qo‘yilishi ana shu muhim maqol asosida qaralsa, maqsadga muvofiq bo‘lishini ta’kidlaydi<sup>2</sup>.

XIII asrda Eronda yashab ijod etgan Shayx Sa’di Sheroziy o‘zining "Guliston" va "Bo‘ston" asarlarida bola tarbiyasi, ota-onaliga farzandlarning o‘zaro munosabatlari masalalariga alohida ahamiyat qaratgan. "Bola mevadir, umrning lazzati" – deydi. Har bir ota-onaliga o‘z farzandiga kichik yoshdan boshlab ta’lim-tarbiya berishi va ilm-hunar o‘rgatishi zarur.

"Kimda kim yoshlikdan tarbiya olmasa, katta bo‘lgach, baxtli bo‘la olmaydi. Ho‘l novdani istagancha bukish mumkin, quruq novdani esa faqat olov bilan to‘g‘rilash mumkin" – deb ta’kidlaydi u. Bu bilan Sa’di bolalar kichik yoshidagina tarbiya ta’siriga beriluvchan bo‘lishlarini, shuning uchun ularni kichiklikdan boshlab tarbiyalash kerakligini katta bo‘lgach, tarbiyalash g‘oyat qiyin bo‘lishligini qayd etadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, farzand umrimizning mazmuni, quyoshi, ertangi kunimiz istiqboli hamdir. Farzand tarbiyasini Navoiy bobomiz ham o‘z qarashlarida aytib o‘tganidek.

Har bir oila farzand ko‘rmog‘i va uni tarbiyalab voyaga yetkazmog‘i kerak. Farzand ota-onaning o‘rinbosari. Farzand ko‘rmoq, uni tarbiyalab o‘stirmoq har bir ota va onaning burchidir. Shuningdek, inson uchun kelajak avlodni yaratishdan, uni tarbiyalab yetuk inson qilib yetishtirishdan ko‘ra xayrli va lazzatli narsa yo‘qdir. Uningcha farzand "mehri anvor" (yorug‘ quyosh)dir. Uyni yorug‘lantirgan va obod qilgan bolani Navoiy – "chu farzand erur jonga payvand erur" – deydi. Shuning uchun farzand ko‘rgan har bir kishi uni sevishi kerak..

## **SPORTCHI TEMPERAMENTINING FAOLIYAT NATIJASIGA TA'SIRI**

*Psixologiya mutaxasisligi magistranti: Erkinov Muslimbek.  
Ilmiy rahbar: o'qituvchisi Ismoilov Nortozi*

Hozirgi kunda sportchi shaxsiga jismonan mukammal bo'lish bilan bir qatorda psixologik yetuklik ham muhim hisoblanadi. Fiziologik tomondan komillikka erishgan shaxs irodaviy sifatlarini takomillashtirmasa, o'z mayllariga ortiqcha erk· bersa, o'zini-o'zi boshqaqara olish to'g'ri yo'lga qo'yilmagan bo'lsa, bunday vaziyatlarda sport faoliyatidagi turli holatlarda asabbuzarlik, stress, depressiya, o'z pozitsiyasini yo'qotib qo'yish va ortiqcha emotsiya-larga berilish (boshqalarga nisbatan jismoniy qo'pollik, haqorat qilish, va b.) kabi holatlar ta'sirida ko'zlanilgan maqsadga (natijaga) erishish qiyinlashadi. Shuning uchun ham sport faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxs xatti-harakatining betakrorligi, psixikaning faoliyatda namoyon bo'lishi, unda yuz berayotgan psixik holatlar asosida yotuvchi farq qonuniyatlarini o'rGANISH sportchi muvaffaqiyatining zarur shartlaridan biridir.

Temperament – genotip (tug'ma) individual xususiyat hisoblanadi va shaxs faoliyatida to'qnash keladigan narsa, hodisa va o'zgalarning munosabatiga javob reaksiyasi bo'lib, sportchi temperamenti faoliyat natijasiga ta'sir o'tkazadigan muhim psixologik xususiyatlaridan biri sanaladi. Uzoq davrdan buyon olib borilayotgan tadqiqotlarga ko'ra, nerv tizimining qo'zg'alish jarayoni va tormozlanish jarayonining kuchi, qo'zg'lish kuchi va tormozlanish kuchi o'rtaqidagi muvozanatlik darajasi, qo'zg'alishning tormozlanish bilan almashinishn tezligi kabi xususiyatiga binoan temperamentning 4ta tipi (xolerik, sangvenik, flegmatik, melonxolik) bir-biridan farqlanadi.

Spotchilarga temperament tiplarining qay biriga tegishliligiga ko'ra quyidagicha izoh berish mumkin:

Xolerik – juda faol, betoqat, serzarda, qiziqishlari va intilishlari barqaror, harakatlari qat'iy, ichki va tashqi tasir kuchiga tez reaksiya bildiradi, diqqatni toplash va yo'naltirishga qiynaladi, ko'pincha vaziyatni to'liq anglamasdan turib javob qaytaradi, qizg'in emotsiyal "portlash" va kayfiyatning keskin o'zgarish-

lariga moyil hisoblanadi. Xolerik temperamentdagi sportchining harakatchanligi, ehtiroslari va kuch-quvvatiga e'tibor berilsa yuqori darajali fazilatga ega bo'ladi, ammo noto'g'ri yondashuv o'zini tuta olmaslik, noodatiy qiziqishlar va e'tiborsizlikni yuzaga keltiradi.

Sangvenik – juda faol, atrofdagi har bir holatga e'tiborli va ularga tezda reaksiya ko'rsatadi, kirishimli, optimistik qiyofada yuradi, imo-ishoralarni ko'p qo'llaydi va o'zi ham tezda tushunib oladi, diqqatni tez to'playdi, obyektga darhol yo'naltiradi va ko'chira oladi, ko'nikma va malakalarni tez o'zlashtiradi, kayfiyatni va qiziqishlari o'zgaruvchan, hayoloti yuqori darajada rivojlangan. Bu tipdagi sportchilarning yana bir ustunlik tomoni mag'lubiyatlar va ko'ngilshizlik natijasida olgan taassurotlardan osonlik bilan chiqib keta oladi. Bu tip vakillarning xususiyatlariga noto'g'ri yondashish diqqatni to'play olmaslik, faoliyatga yuzaki kirishish, bir yo'la bir nechta ishga qo'l urish, kun tartibiga rioya qilmaslik holatlari uchraydi.

Flegmatik - muvozanatlashgan vazmin tip bo'lib, kam o'zgaruvchan, qat'iy pozitsiyli, bunday sportchilarni jahlini chiqarish va kayfiyatini buzish qiyin, imo-ishorasi va mimikasi kuchsiz, ko'zga tashlanmaydi, kam harakat, diqqatni obyektga sekinkilik bilan to'playdi hamda boshqa obyektga ham tez ko'chira olmaydi, tashqi ta'surotlarga javob berishi sust, kamgap sanaladi. Shuning bilan birga, g'ayratli, sabr va matonatli. Bu tipdagi sportchilar boshqa tip vakillariga nisbatan anchagina chidamlidir.

Melonxolik – hissiyotlari chuqur, barqaror, emotsiyonal jihatdan sezgir, shu bilan bir qatorda, tortinchoq, g'ayratsiz, arazchan, kamharakat, tez toliqadi, munosabatga kirishishi qiyin, qat'iyatsiz, mustaqil harakat qilishi qiyin, ammo har qanday harakatdan o'zini tiya oladi, musobaqa oldidan kuchli hayajon va qo'rquvni his qiladi, mag'lubiyatdan so'ng qayta tiklanishi qiyin. Bunday tip vakillari sport sohasini kam tanlaydi, ular uchun kam harakat ta'lab qiladigan va kuchli bosim bo'lmagan sport turlari qulay hisoblanadi. Ularning psixologik xususiyatlariga yetarli e'tibor qaratilganda ular ham yuqori marralarni zavt etishlari mumkin.

Sportchining temperament xususiyatlari uning individual yoki jamoaviy sport turlari bilan shug'ullanishi va muvaffaqiyatga erishishini belgilab beruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Sangvenik va xolerik tipdagi shaxslarning individual xususiyatlari yakkalik sport turlari uchun xosdir, chunki ushbu tipdagi shaxslar qozg' alishi tez va tashqi ta'sirlarga zudlik bilan reaksiya bildira oladi.

Shaxslarda bir nechta temperament xususiyatlarini ko'nish mumkin, ammo ulardan biri ustunlik qiladi. Temperament tiplarining barchasi o'zida ham ijobiy, ham salbiy xususiyatlarni aks ettiradi. Shaxs temperamenti o'zgarmas bo'lib, faqat ayrim xususiyatlari hayotiy sharoit hamda to'g'ri tarbiya natijasida takomillashishi mumkin. Bu har bir sportchi uchun juda muhim hisoblanadi, chunki ba'zi hollarda sportning yakka kurash turlarida musobaqadan oldin yoki musobaga vaqtida raqib tomonidan sportchini psixikasiga turli harakatlar orqali ta'sir o'tkazgan holda uni ruhiy muvozanatdan chiqarishga harakat qilishadi. Bunday holatlarda qiziquvchan, betoqat, hissiyotlarini jilovlay olmaydigan sportchilar jangdan avvalgi rejada nazarda tutilmagan harakatlarni amalga oshirib, kamchiliklarga yo'l qo'yadilar va imkoniyatni raqibga boy beradilar. Shuning uchun ham xolerik va sangvenik tipdagi sportchilar o'z hissiyotlarini jilovlashlari, muhim bo'lmagan ta'sirlarga e'tibor bermasliklari jang natijasi uchun zarurdir.

Bazida yuqori darajadagi sportchilarda ham bu boradagi kamchiliklarni ko'rishimiz mumkin. Masalan , USF jangida Xabib Nurmagomedov Konor Makgregor bilan to'qnashdi va jang davomida g'alabaga erishish uchun o'sha paytgacha bo'lgan barcha unga qaratilgan ta'sirlarga qaramay o'zini tutib turdi, ammo Konor Makgregor guruhining a'zolari tomonidan ring tashqarisidan aytilgan so'zlarga javoban qarama-qarshilk tugagach ularga agresiv harakatlar bilan javob qaytaradi. Bu esa uning jarimaga tortilishiha va ma'lum vaqtga ringga chiqishdan mahrum etilishiga sabab bo'ldi.

Sportchi faoliyatida uchraydigan ruhiy qiyinchiliklar ya'ni mag'lubiyatga uchrashdan qo'rqish, irodaning sustligi , hayajonlanishdan va turli xil ruhiy ta'sirlarga berilish, mag'lubiyatdan so'ng faoliyatdagi oqsash kabilarga yo'l qo'ymaslik sportchi psixikasiga to'gri yondashish orqali amalga oshiriladi. Bu esa sportchi faoliyatida psixologik tayyorgarlikning naqadar muhim ekanligini ko'rsatadi.

24	<i>Рашбердиев А. Нуруллаева Ш.</i>	Шахсни интеллектуал ривожлантириш – ижтимоий-педагогик муаммо сифатида	73
25	<i>Sobirova N. Z G'afforova T.</i>	Bolalarning deviatsiyaga moyilligini tashxislash usullari	76
26	<i>O'sarova M.</i>	O'qituvchi va o'quvchilar o'tasida konfliktlarning kelib chiqish sabablari	79
27	<i>Xo'jayarova N.</i>	Sharq mutafakkirlari asarlarida farzandlarga ota-onalarining munosabatlarining yoritilishi	81
28	<i>Erkinov M.. Ismoilov N.</i>	Sportchi temperamentining faoliyat natijasiga ta'siri	83
29	<i>Авулова Д. Мавлонов Ў.</i>	XVI аср ҳарбий соҳаси тарихидан( Бухоро ҳонлиги мисолида)	86
30	<i>Жамолов Д.</i>	Бола тарбиясида оила ва жамоанинг ўрни	89
31	<i>Маннатова М.Б.</i>	«ЧА ЦЗИН» – первый трактат о чае	94
32	<i>Нурманова З.Н.</i>	Жанубий Ўзбекистон шаҳарлари ўрта асрлар мисолида	97
33	<i>Сайдов Ф.</i>	Марказий Осиё минтақасида тинчлик ва хавфсизликни тъминлашда Ўзбекистон республикасининг ўрни ва роли	101
34	<i>Samadova F., Eshmurodova G.</i>	Ta'lim jarayonini tashkil etish va boshqarishning samaradorligini oshirish	105
35	<i>Халиков F., Муминова Г.</i>	Мустакиллик Ўзбекистоннинг йилларида хорижий мамлакатлар билан соглиқни саклаш соҳасидаги ҳамкорлиги	106
36	<i>Bobojonova Sh. Mengliyev B.</i>	Ilmiy matnda so'z tartibi	109
37	<i>Jo'rayeva M., Mo'minova S.</i>	Abdulla Qodiriy she'rlarida millat qayg'usi	112

38	<i>Maxmadmurodov N.</i> <i>Bahriiddinov Z.</i>	Онлайн телеканалда биржона ва зарур даръ сабаки месалалар	114
39	<i>Султонова Н.</i>	Ислом Султоновинг романизвестник маҳорати	117
40	<i>Ортикова Э.</i> <i>Жабборов Э.</i>	Кодир баҳши достонларида қўлланган ономастик бирликларниң структураси	121
41	<i>Раҳматова З.Х.</i>	Мактабгача ёшдаги болалар нутқини ўстиришнинг лингвистик асослари	125
42	<i>Ro'ziyeva D.</i>	Adabiyotshunos olimning adabiy ijod yo'li	128
43	<i>Рӯзиева Д.</i>	Иқбол Мирзо ижодида метафора	130
44	<i>Сатторзода X.</i> <i>Имомова Г.</i>	Чингиз Айтматовнинг "Тоғлар кулаётган замон (абадий қаллик) романидаги бош гоя	133
45	<i>Султонова Н.</i>	"Генетик" романни бадиияти	137
46	<i>Hasanova G.</i> <i>Yuldasheva N.</i>	Peshlavhalarda nolisoniy vositalarning o'rni	141
47	<i>Cho'liyeva N.</i>	Nazar Eshonqul ijodida ramz	145
48	<i>Шодиева С.</i>	Қори Раҳматулло Возех хаёти ва илмий мероси	148
49	Бердиёрова М.Х	Нуткни ривожлантиришда тилнинг аҳамияти	153
50	<i>Ismoilova M.</i>	Curtailed words in press vocabulary	156
51	<i>Chariyeva D.A.</i> <i>Shukurova Z.SH</i>	Xorijiy tillarni o'qitishda zamonaviy usullari	158
52	<i>Чориева Зебо</i> <i>Шукурова З.Ш.</i>	Сифат сўз туркумига оид субстантивация ҳодисаси	160